



O'ZBEK O'QUV LUG'ATLARI IZOHLARIDA DARAJALANISH TAMOYILINI TAKOMILLASHTIRISH

Q.B.Eshboyev

*Renessans ta'lim universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932217>

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek o'quv lug'atlarida so'z ma'nolarini ifoda etishda darajalanish tamoyilini qo'llash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan hamda so'zlar orasidagi semantik darajaviy munosabatlarni aniqlash va ularni lug'at izohlarida tizimli tarzda aks ettirish zarurligini asoslab berilgan. Shuningdek, o'quv lug'atlarida sinonimik qatlamdagi birliklar o'rtasidagi graduonimik munosabatlarni belgilash, ma'noning intensivlik darajasini ifoda etish hamda lug'atlarning ta'limiy funksiyasini kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** o'quv lug'ati, darajalanish tamoyili, sinonimiya, graduonimiya, intensivlik, semantik daraja, leksikografiya, izoh.*

Zamonaviy tilshunoslikda leksikografiya sohasi jadal rivojlanayotgan bo'lib, o'quv lug'atlari tuzish va ularning sifatini oshirish masalalari alohida e'tibor talab etadi. O'quv lug'atlarining asosiy vazifasi tilni o'rganayotgan shaxslarga so'z boyligini o'zlashtirish va lug'aviy birliklardan to'g'ri foydalanishga ko'maklashish hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday lug'atda ham ma'lumot, axborot berish, nimanidir o'rgatish maqsadi mavjud bo'ladi. Ammo bevosita ta'lim uchun yo'naltirilgan lug'atlar esa o'quv lug'ati toifasiga kiritiladi va ular maxsus lingvodidaktik tamoyil, mezonlar asosida tuziladi.

Pedagogik tushunchalarning qomusiy lug'atida o'quv lug'ati tushunchasi va o'quv lug'atiga xos belgi-xususiyatlar quyidagicha tavsiflanadi: "O'quv lug'ati – leksikografiyada lug'atning mustaqil ko'rinishi; ta'limiy yo'nalganligi va o'quv vositasi hisoblanishi bilan xarakterlanadi. So'zlikning tuzilishi, so'z tanlash mezonlari, lug'at materialining joylashtirilishi, lingvistik ma'lumotni taqdim etish va izohlash usuli, materialni taqdim etish tili, hajmi, dizayni va boshqa belgilariga ko'ra xarakterlanadi"¹.

Soha mutaxassislari o'quv lug'atini yaratishda bir-biri bilan uzviy aloqador bo'lgan ikki asosiy muammoning yechimi, ya'ni:

- 1) so'zlikni tanlash, taqdim qilish usuli;
- 2) ta'limning bosqichi, nutqiy faoliyat vaziyati, nutq uslubi, ta'lim oluvchining ona tili, madaniy, ma'naviy saviyasi va boshqalarning hisobga olinishi lozimligini

¹ Педагогический энциклопедический словарь / Редкол.: М.М.Безруких, В.А.Болотов, Л.С.Глебова и др.; Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с. – С. 262.



ta'kidlaydi². Bundan ko'rinadiki, o'quv lug'ati ham lingvistik va didaktik tamoyillarga asoslanishni talab qiladi, bu esa ta'lim oluvchi, lug'atdan foydalanuvchining shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

“So'nggi yillarda “o'quv leksikografiyasi” termini ta'rifiga lug'atning o'rganilayotgan tilni o'qitish metodikasi bilan bog'lanishiga urg'u berildi, ya'ni “o'quv leksikografiyasi – leksikografiyaning lug'at yoki lug'at tipidagi boshqa asarlarda til birliklarining pedagogik maqsadga yo'naltirilgan tavsifining nazariy va amaliy aspektini qamrab oladigan maxsus soha”³ ekanligi ham ta'kidlandi.

Ma'lumki, lug'at tuzishning o'ziga xos mezonlari mavjud, o'quv leksikografiyasi va uning ob'yekti bo'lgan o'quv lug'atining tavsifiy belgilari, asosan, uch xususiyatni nazarda tutadi:

- ta'limiy maqsadga yo'nalganlik;
- hajman chegaralanganlik;
- til (ona tili yoki boshqa til) o'qitish uchun mo'ljallanganlikka urg'u beriladi.

Bu uch omilning ta'minlanishi orqali o'quv lug'ati oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin.

Rus leksikografi V.V.Morkovkinning yondashuvida o'quv lug'atlarida hajm yetakchi mezon sifatida olinmaydi, balki bu tipdagi lug'atlarning lingvodidaktik xarakterga ega bo'lishi, ya'ni ta'limga yo'nalgan bo'lishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Shuningdek, u o'quv lug'atchiligining alohida lingvometodik yo'nalish, an'anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida paydo bo'lgan fan ekanligi ham ta'kidlab o'tilgan⁴.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, keyingi yillarda o'quv lug'atlar umumiy tuzilishi mualliflarning lug'at tuzish bo'yicha tajribasi, lug'at turi – elektron yoki bosma lug'at ekani va boshqa omillarga ko'ra takomillashib borayotgani kuzatilmoqda. Yangi avlod darajalanish o'quv lug'atining megaqurilishini shakllantirishda tadqiqotchi G.Mirxanovanning amalga oshirgan ishlariga tayanishimiz mumkin. Tadqiqotchining ishida iboralarning o'quv lug'ati megaqurilishi bilan bog'liq quyidagilar qayd qilinadi: “O'quv lug'atining megaqurilishi kirish (1); “Lug'atdan qanday foydalaniladi?”, “Lug'atdan foydalanish bo'yicha ko'rsatma”, “Lug'at bilan ishlash bo'yicha yo'riqnoma” kabi nomlar bilan yuritiladigan o'quv-metodik ta'minot (2); lug'atda foydalanilgan shartli qisqartmalar va ularning izohi (3); lug'at korpusi, ya'ni

2 Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы. Проблемы учебной лексикографии. – М.: Изд.-во Моск.ун-та, 1977. – 189 с. – С 4.

3 Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ... докт. филол. наук (в форме научного доклада). – М.: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990. – С. 8.

4 Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М.: Русский язык, 1977. – с. 28-37. – С. 31.



soʻzlik (4); ilova (5)lardan tashkil topishi kerakligini aytib oʻtadi. U umumiy strukturasi amaldagi leksikografik anʼanalarga asoslangan bir necha parametrli qismlar bilan birga leksik birliklarni lugʻatda oʻquv maqsadida taqdim qilishning innovasion metodlariga asoslangan yangi qismlar bilan boyib borishini ham taʼkidlaydi⁵. Frazologizmlar boʻyicha tilshunos M.Umarxodjayev va O.Aʼzamovlarning “Nemischa-oʻzbekcha zoonim komponentli frazeologizmlar oʻquv lugʻati” ham shu sohadagi muhim manbalardan biridir.

Anglashiladiki, oʻquv lugʻatlari zamonaviy tilshunoslik va pedagogikaning kesishmasida joylashgan muhim didaktik vositalardir. Ularning asosiy vazifasi nafaqat soʻzlarning maʼnosini tushuntirish, balki til oʻrganuvchilarning leksik kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirish hisoblanadi. Bu faslda oʻquv lugʻatlarida semantik darajalanish tamoyillarini yanada takomillashtirish yoʻllari tahlil qilinadi.

Semantik munosabatlarning toʻliq va aniq aks ettirilishi. Oʻquv lugʻatlarining samaradorligini oshirish uchun soʻzlar oʻrtasidagi semantik munosabatlarni yanada toʻliq va aniq koʻrsatish zarur. Anʼanaviy lugʻatlarda, asosan, izohli maʼnolar berilsa, oʻquv lugʻatlarida paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni ham aks ettirish lozim. Masalan, “kitob” soʻzi uchun nafaqat asosiy maʼno (“oʻqish uchun moʻljallangan yozma asar”), balki uning giperonim (“adabiyot”), giponim (“roman”, “sheʼriy toʻplam”) va meronimik munosabatlari (“sahifa”, “muqova”) ham koʻrsatilishi kerak.

Semantik munosabatlarni ifodalashda iyerarxik tuzilma prinsipi qoʻllanilishi maqsadga muvofiq. Bunda V.V.Morkovkinning taklif etgan “semantik maydon” nazariyasiga tayanish mumkin⁶. Har bir leksema oʻzining semantik maydoni doirasida koʻrib chiqiladi va shu maydon ichidagi boshqa birliklar bilan munosabati aniqlanadi.

Ilyustrativ misollarning kengaytirilishi. Zamonaviy lingvodidaktikada kontekstual oʻrganish tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Oʻquv lugʻatlarida soʻzlarning qoʻllanish kontekstlarini koʻrsatuvchi misollar soni va sifatini oshirish zarur. Bu borada bir qator mezonlarga rioya qilish tavsiya etiladi. Birinchidan, misollar hayotiy va zamonaviy boʻlishi lozim. Eski va eskirgan misollar oʻrniga kundalik hayotda qoʻllaniladigan, talabalar uchun tushunarli va yaqin boʻlgan misollardan foydalanish kerak.

5 Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022. – 145 б.

6 Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии. – М.: РУДН, 1990.



Har bir ma'no uchun kamida 2-3 ta misol keltirilishi, bu misollar turli uslub va janrlarga tegishli bo'lishi maqsadga muvofiq. Masalan, "o'qimoq" fe'li uchun rasmiy ("Sudya qarorni o'qidi"), norasmiy ("Kitobni dam olish uchun o'qiyapman") va badiiy ("Yulduzlar taqdirni o'qiydi") uslubdagi misollar berilishi mumkin.

Leksik-semantik munosabat turlarining tizimli ko'rsatilishi. O'quv lug'atlarida sinonim, antonim va boshqa leksik-semantik munosabat turlarini muntazam ravishda ko'rsatish zarurati A.A.Ufimtsevaning leksik-semantik tizim nazariyasiga asoslanadi⁷. Bu yondashuv quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Har bir leksema uchun sinonimik qator to'liq ko'rsatilishi va sinonimlar orasidagi semantik farqlar aniqlanishi. Masalan, "chiroyli" sifati uchun "go'zal", "xushro'y", "dilkash" sinonimlarining o'ziga xos ma'nolari ajratilishi kerak.

2. Antonimik juftliklar nafaqat leksik, balki kontekstual darajada ham ko'rsatilishi lozim. "Baland – past" antonim juftligi turli kontekstlardagi ("baland tog'" – "past joy", "baland ovoz" – "past ovoz") qo'llanishlariga misollar keltirilishi kerak.

Semantik maydonlar bo'yicha guruhlash. So'z boyligini mavzular yoki semantik maydonlar bo'yicha guruhlash J.Trierning "semantik maydon" nazariyasiga asoslanadi⁸. Bu yondashuv bir qator afzallikarga ega. Jumladan, bir mavzuga oid so'zlarning tizimli o'zlashtirilishiga yordam beradi. Masalan, "ta'lim" semantik maydoni doirasida "o'qituvchi", "o'quvchi", "dars", "bilim", "ko'nikma" va boshqa leksemalar birgalikda o'rganiladi. So'zlar orasidagi paradigmatic munosabatlar aniqroq ko'rinadi va eslab qolish jarayoni osonlashadi.

O'quv lug'atlarini tuzishda quyidagi lingvodidaktik tamoyillarga amal qilish zarur. Bosqichlilik tamoyili – so'zlar murakkablik darajasiga qarab tartiblangan bo'lishi kerak. Oddiy va keng qo'llaniladigan so'zlar birinchi navbatda beriladi, keyinchalik ixtisoslashgan terminlar kiritiladi.

Funksionallik tamoyili bo'yicha lug'atda keltirilgan ma'lumotlar amaliy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

O'quv lug'atlarida semantik darajalanishni takomillashtirish zamonaviy tilshunoslik va pedagogika yutuqlariga asoslanishi kerak. So'zlar orasidagi semantik munosabatlarni to'liq aks ettirish, illyustrativ misollardan keng foydalanish, leksik-semantik munosabatlarni tizimli ko'rsatish va semantik maydonlar bo'yicha guruhlash o'quv lug'atlarining didaktik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu tamoyillarni amalga oshirish til o'rganuvchilarning leksik kompetensiyasini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

⁷Уфимцева А.А. Лексическое значение: Принцип семиологического описания лексики. М.: Наука, 1986.

⁸Trier J. Das sprachliche Feld. Eine Auseinandersetzung. Neue Jahrbücher für Wissenschaft und Jugendbildung, 1934.



O'zbek o'quv lug'atchiligida darajalanish tamoyilini takomillashtirish uchun yana bir qator ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Jumladan, lug'atda berilgan leksemaning **izohini aniq darajalarga bo'lish, ya'ni** lug'atda keltirilgan leksemalar izohi foydalanuvchining yosh darajasiga (boshlang'ich, o'rta, yuqori) moslab yozilishi kerak va har bir daraja uchun izohlar turlicha bo'lishi maqsadga muvofiq. Masalan:

Boshlang'ich daraja: oddiy va qisqa izohlar, tushunarli misollar.

O'rta daraja: batafsilroq izohlar, qo'shimcha ma'lumotlar.

Yuqori daraja: ilmiy va murakkab tushunchalar, terminologik izohlar.

Lug'at yaratishda leksemaning izohini foydalanuvchining yosh darajasiga moslab yozish juda samarali metod hisoblanadi. Bu usul orqali har xil yoshdagi o'quvchi o'z bilim darajasiga qarab so'z ma'nosini yaxshi tushunib oladi. Bir xil so'z uchun turli yosh guruhlariga mos turlicha izohlar yozish.

Yosh darajalari:

1. Boshlang'ich daraja – kichik yoshli bolalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun.

2. O'rta daraja – o'rta sinf o'quvchilari yoki biroz kattaroq bolalar uchun.

3. Yuqori daraja – katta yoshdagilar, yuqori sinf o'quvchilari va kattalar uchun.

“Suv” leksemasi uchun izohlar:

Boshlang'ich daraja: Suv – ichish uchun, yuvinish uchun kerak bo'ladigan, oquvchi shaffof suyuqlik.

O'rta daraja: Suv – hayot uchun zarur bo'lgan suyuq modda. Odamlar, o'simliklar va hayvonlar uni ichadilar. Suv dengiz, ko'l, daryolarda uchraydi.

Yuqori daraja: Suv – kimyoviy tarkibi H_2O bo'lgan suyuq modda. Yer yuzidagi hayot uchun asosiy manba hisoblanadi. Turli agregat holatlarda uchraydi (suyuq, muz, bug'). Sanoatda, qishloq xo'jaligida va kundalik turmushda keng qo'llaniladi.

“Qush” leksemasi uchun izohlar:

Boshlang'ich daraja: Qush – uchadigan, qanotli va patli hayvon.

O'rta daraja: Qush – tanasida patlari bo'lgan, tuxum qo'yadigan va ko'pincha uchadigan hayvonlar guruhi.

Yuqori daraja: Qush – umurtqali jonzotlar sinfining vakillari bo'lib, ularning tanasi patlar bilan qoplangan, ular tuxum orqali ko'payishadi, ko'pchiligi uchish qobiliyatiga ega. Qushlar ekotizimda muhim rol o'ynaydi (masalan, urug'lar tarqatish, hasharotlar sonini tartibga solish).

“Oila” leksemasi uchun izohlar:



Boshlang'ich daraja: Oila – dada, ona va farzandlardan iborat guruh.

O'rta daraja: Oila – birga yashaydigan va bir-birini hurmat qiladigan yaqin qarindoshlar guruhi (ota, ona, farzand va boshqalar).

Yuqori daraja: Oila – nikoh yoki qarindoshlik munosabatlariga asoslangan ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari o'zaro mas'uliyat, mehr va yordam asosida yashaydilar. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Turli yoshdagi bolalarga lug'atdagi so'zlarning izohini darajalab tushuntirish lug'at foydalanuvchisi uchun manfaatli bo'ladi. Chunki har bir yoshdagi foydalanuvchi so'z ma'nosini o'z darajasiga mos tushunadi. So'z haqidagi fahm va bilish darajasi bosqichma-bosqich kengayadi. Qiyin so'zlarni ham bolalar va kattalar oson anglaydi.

“Kitob” leksemasi uchun izohlar

Boshlang'ich daraja: Kitob – qog'ozlardan tayyorlangan va o'qish uchun yozilgan narsa.

O'rta daraja: Kitob – odamlar o'qish uchun yozadigan matnlar yig'indisi. Kitob orqali bilim va hikoyalarni o'rganish mumkin.

Yuqori daraja: Kitob – ma'lum mavzuda yozilgan, ma'lum shakl va mazmunga ega bo'lgan matnlar yig'indisi. Kitob axborot tarqatish, ta'lim berish, ma'naviy boyitish va madaniyatni saqlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

“Daraxt” leksemasi uchun izohlar

Boshlang'ich daraja: Daraxt – yerda o'sadigan, kalin tanali va shox-shabballari bo'lgan o'simlik.

O'rta daraja: Daraxt – qalin tanali, shox va barglarga ega ko'p yillik o'simlik. Qishda ba'zi daraxtlar bargini to'kadi.

Yuqori daraja: Daraxt – tanasi yog'ochli bo'lgan, ko'p yil davomida o'sadigan o'simlik. Ekologik tizimlarda muhim o'rin tutadi, kislorod ishlab chiqaradi, tuproqni mustahkamlaydi va turli hayvonlar uchun makon vazifasini o'taydi.

“Kompyuter” leksemasi uchun izohlar

Boshlang'ich daraja: Kompyuter – o'yin o'ynash, rasm chizish yoki film ko'rish uchun moslama.

O'rta daraja: Kompyuter – ma'lumotlarni saqlaydigan, qayta ishlaydigan va turli ishlarni bajaradigan elektron uskuna. Unda o'yin o'ynash, matn yozish, internetdan foydalanish mumkin.

Yuqori daraja: Kompyuter – dasturlar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini beradigan ko'p funksiyali elektron qurilma. U ishlab chiqarish, ta'lim, ilm-fan, tadqiqot va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

“Vatan” leksemasi uchun izohlar



Boshlang'ich daraja: Vatan – odam tug'ilib o'sgan yurt.

O'rta daraja: Vatan – kishi tug'ilib o'sgan va uning xalqi yashaydigan mamlakat. Odamlar o'z vatani uchun faxrlanadilar va uni himoya qiladilar.

Yuqori daraja: Vatan – muayyan milliy, tarixiy va madaniy qadriyatlarga ega, insonning tug'ilib o'sgan va uning shaxsiy, ijtimoiy mansublik hissi bilan bog'liq bo'lgan yurti. Vatan tushunchasi milliy g'urur, vatandoshlik va yurtga sadoqat tuyg'ularini o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilgan holda shuni aytishimiz joizki, **lug'atlarda foydalanuvchining bilim darajasini inobatga olish** kerak. Chunki o'quvchilar turli yosh guruhlariga mansub bo'ladi, shuning uchun lug'atdagi izohlar oddiy va oson tushuniladigan bo'lishi kerak. Shuningdek, izohlar aniq va lo'nda bo'lishi zarur. Bu so'zning bir nechta ma'nolari orasida chalkashliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Semantik maydonlarni hisobga olish orqali so'z ma'nolari ular qo'llaniladigan matnga qarab farqlanishi mumkin. Shuning uchun izohlarda so'zning turli semantik maydonlardagi qo'llanishi ko'rsatilishi kerak. Masalan, "yulduz" leksemasi astronomiyada va kinoda turlicha talqin qilinadi.

Zamonaviy lug'atlarda so'zlarning ma'nosini yanada tushunarli va ta'sirli qilish uchun multimedia vositalari keng qo'llanilmoqda. Rasmlar, audio va video materiallar orqali lug'at foydalanuvchilarga yanada boy ma'lumot taqdim etadi. Masalan, hayvonlar yoki o'simliklar nomlari ularning rangli tasvirlari bilan birga keltirilsa, vizual xotira orqali so'z ma'nosi mustahkam o'zlashtiriladi.

Foydalanuvchi ishtiroki lug'atning sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Elektron lug'atlarda foydalanuvchilarning izoh va tushunchalar haqida fikr-mulohaza bildirishlari imkoniyati yaratilsa, lug'at doimiy ravishda takomillashib boradi. Foydalanuvchilar tomonidan keltirilgan o'rinli takliflar va tanqidiy sharhlar asosida izohlarni yangilash va boyitish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bazalaridan foydalanish lug'atchilikda inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda. Avtomatik tizimlar orqali lug'at izohlarini yangilash va takomillashtirish, so'zlarning eng ko'p qo'llaniladigan ma'nolarini aniqlash hamda ularni muhimlik darajasiga qarab tartibga solish mumkin.

Tilshunoslik tadqiqotlarini doimiy kuzatib borish lug'atning ilmiy asoslilikini ta'minlaydi. O'zbek tilining rivojlanishi, dialektal va stilistik xususiyatlarini hisobga olgan holda izohlarni muntazam yangilab turish zarur. Til – jonli organizm kabi rivojlanib boradi: so'zlar yangi ma'nolar qo'shishi, eski ma'nolari yo'qolishi yoki o'zgarishi mumkin. Shu sababli lug'at ham bu jarayonlarga moslashib, doimiy yangilanib turishi lozim.



Bu yondashuvlar birgalikda zamonaviy lug'atni nafaqat ma'lumot manbayi, balki interaktiv ta'lim vositasiga aylantiradi. Bunday lug'at foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchi, doimiy rivojlanuvchi va ilmiy asoslangan lug'atshunoslik mahsuli bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida leksikografiya sohasining rivojlanishi bilan birga o'quv lug'atlarining sifati va samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda mavjud o'quv lug'atlarida darajalanish tamoyilining qo'llanilishi bir qator metodologik va amaliy muammolarni ko'rsatmoqda, bu esa ushbu yo'nalishni takomillashtirish zaruriyatini tug'diradi.

Darajalanish tamoyilining nazariy-metodologik asoslarini mustahkamlash. O'quv lug'atlarida darajalanish tamoyilini takomillashtirish, avvalo, ushbu tamoyilning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish va mustahkamlashdan boshlanishi kerak. Hozirgi vaqtda graduonimiya va ma'nodoshlik o'rtasidagi farqlar yetarlicha aniq belgilanmagan, bu esa amaliy leksikografiyada chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda.

Graduonimiyaning asosiy mezonlari sifatida quyidagilarni belgilash zarur: birinchidan, qatordagi barcha leksemalarning umumiy atash semasiga egaligi; ikkinchidan, ma'lum bir belgining miqdoriy yoki sifat jihatidan darajalanib borishi; uchinchidan, qator tarkibidagi leksemalarning semantik dominanta atrofida tartiblanishi. Bu mezonlar asosida o'quv lug'atlarida darajalanish qatorlarini tanlash va taqdim etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida graduonimiya nafaqat leksik-semantik munosabat turi sifatida, balki kognitiv-diskursiv hodisa sifatida ham qaraladi. Bu nuqtayi nazardan o'quv lug'atlarida darajalanish qatorlarini taqdim etishda tilning pragmatik imkoniyatlarini ham e'tiborga olish zarur. Har bir graduonim ma'lum pragmatik kontekstda o'ziga xos stilistik va ekspressiv qiymatga ega bo'ladi, bu esa o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Leksikografik izoh texnologiyasini takomillashtirish. O'quv lug'atlarida darajalanish qatorlarini izohlovchi texnologiyani takomillashtirish zamonaviy tilshunoslik yutuqlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Har bir graduonim uchun to'liq leksikografik ta'rif berish bilan birga, uning darajalanish qatoridagi o'rnini ko'rsatuvchi maxsus belgilar tizimini ishlab chiqish zarur.

Graduonimlarning leksikografik izohida quyidagi komponentlar bo'lishi maqsadga muvofiq:

- asosiy semantik ta'rif;



- darajalanish qatoridagi oʻrnini koʻrsatuvchi raqamli yoki harfli belgi; semantik dominantaga nisbatan farqlovchi xususiyatlar;

- stilistik va pragmatik xususiyatlar;

- sinonimik va antonimik bogʻlanishlar. Bunday yondashuv oʻquvchilarga soʻzning nafaqat maʼnosini, balki uning tildagi oʻrnini ham toʻliq tushunish imkonini beradi.

Illyustrativ materiallarni tanlash va taqdim etishda ham yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Graduonimlar uchun illyustrativ misollar tanlanayotganda, ularning darajalanish xususiyatlarini yaqqol koʻrsatuvchi kontekstlarni tanlash muhimdir. Masalan, “jahl – achchiq – gʻazab – qahr – nafrat” qatoridagi har bir graduonim uchun uning darajasini aniq koʻrsatuvchi kontekstual misollar keltirilishi kerak.

Vizual va multimedia vositalardan foydalanish imkoniyatlari. Zamonaviy taʼlim texnologiyalarining rivojlanishi oʻquv lugʻatlarida vizual va multimedia vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Darajalanish qatorlarini vizual tarzda taqdim etish uchun turli grafik vositalardan foydalanish mumkin: rangli sxemalar (1); miqdoriy koʻrsatkichli diagrammalar (2); semantik xaritalar (3); interaktiv grafik elementlar (4).

Graduonimik qatorlarning vizual taqdimi oʻquvchilarning soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlarni tushunishini sezilarli darajada osonlashtiradi. Masalan, “kichkina – kichik – mayda – mittigina” qatorini rangli chiziq yordamida koʻrsatish mumkin, bu yerda har bir graduonimning oʻlcham jihatidan kamayib borishi vizual tarzda namoyon boʻladi.

Audio-lingual komponentlarni qoʻshish ham graduonimlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir graduonimning toʻgʻri talaffuzi bilan birga, uning intonatsion xususiyatlarini ham koʻrsatish zarur, chunki koʻpgina graduonimlar ekspressiv intonatsiya orqali oʻzlarining darajalanish xususiyatlarini namoyon qiladi.

Kontekstual va diskursiv yondashuvlarni joriy etish. Oʻquv lugʻatlarida darajalanish tamoyilini takomillashtirishning muhim yoʻnalishi kontekstual va diskursiv yondashuvlarni joriy etishdir. Graduonimlar nafaqat izolatsiyalashgan holda, balki turli kommunikativ vaziyatlarda qanday ishlatilishini koʻrsatish zarur.

Har bir graduonim uchun tipik qoʻllanish sohalari va registrlarni belgilash muhimdir. Masalan, “baxtli – saodatli – masʼud – komron” qatoridagi leksemalar turli uslubiy registrlarda har xil chastotada ishlatiladi: “baxtli” kundalik nutqda keng qoʻllanilsa, “komron”, asosan, badiiy va publitsistik matnlarda uchraydi.

Diskursiv yondashuv graduonimlarning pragmatik funksiyalarini ochib berishga yordam beradi. Har bir graduonim maʼlum kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi



va so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. Bu jihatlar o'quv lug'atlarida alohida e'tiborga loyiqdir, chunki ular o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bosqichli ta'lim tamoyilini qo'llash. O'quv lug'atlarida darajalanish tamoyilini takomillashtirishning yana bir muhim jihati bosqichli ta'lim tamoyilini qo'llashdir. Turli yoshdagi o'quvchilar uchun graduonimlarni taqdim etish usullari har xil bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sodda va aniq darajalanish qatorlari (masalan, "kichik – o'rta – katta") taqdim etish kifoya qilsa, yuqori sinf o'quvchilari uchun murakkabroq va ko'p komponentli qatorlar (masalan, "kichkina – mayda – kichik – o'rtacha – katta – ulkan – bahaybat") berilishi mumkin.

Har bir ta'lim bosqichi uchun graduonimlarning ma'lum miqdoriy me'yorlarini belgilash ham zarur. Boshlang'ich bosqichda 3-5 komponentli qatorlar, o'rta bosqichda 5-7 komponentli qatorlar, yuqori bosqichda esa 7-10 komponentli qatorlar taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Interaktiv va adaptiv lug'at texnologiyalari. Zamonaviy raqamli texnologiyalar o'quv lug'atlarida darajalanish tamoyilini yanada samarali qo'llash imkoniyatlarini yaratmoqda. Interaktiv lug'atlar o'quvchilarga graduonimlarni dinamik tarzda o'rganish imkonini beradi.

Adaptiv lug'at tizimlari o'quvchining bilim darajasini hisobga olib, unga mos keladigan darajalanish qatorlarini taqdim etish imkoniyatiga ega. Bunday tizimlar o'quvchining o'zlashtirish sur'atini kuzatib, dastlabki oddiy qatorlardan boshlagan holda, asta-sekin murakkab qatorlarga o'tkazadi.

Gamifikatsiya elementlarini qo'shish ham graduonimlarni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. O'quvchilar graduonimlar bilan bog'liq turli o'yinlar, viktorinalar va interaktiv mashqlar orqali so'z boyligini oshirishlari mumkin.

Milliy-madaniy kontekstni e'tiborga olish. O'zbek o'quv lug'atlarida darajalanish tamoyilini takomillashtirishda milliy-madaniy kontekstni e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili graduonimlari o'zbek xalqining dunyoqarashi, madaniy qadriyatlar va an'analarini aks ettiradi. Masalan, "mehmon – qo'noq – musofir" qatoridagi har bir graduonim o'zbek madaniyatida o'ziga xos konnotatsiyaga ega. "Mehmon" so'zi eng yuksak hurmat va e'zoz ma'nosini ifodalasa, "musofir" nisbatan neytral xarakterga ega. Bunday milliy-madaniy nozikliklarni o'quv lug'atlarida aks ettirish o'quvchilarning nafaqat tilni, balki madaniyatni ham chuqur o'zlashtirishlariga yordam beradi.



Folklor, adabiy meros va zamonaviy madaniy kontekstdagi graduonimlarning qo'llanilish xususiyatlarini ko'rsatish ham muhimdir. Bu o'quvchilarga tilning jonli va rivojlanayotgan hodisa ekanligini tushunish imkonini beradi.

Takomillashtirilgan darajalanish tamoyilining samaradorligi. Takomillashtirilgan darajalanish tamoyilining qo'llanilishi o'quv lug'atlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu, birinchidan, o'quvchilarning leksik kompetensiyasini tizimli rivojlantirishga yordam beradi; ikkinchidan, so'zlar o'rtasidagi murakkab semantik munosabatlarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi; uchinchidan, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Graduonimlarni to'g'ri o'zlashtirgan o'quvchilar o'z fikrlarini aniqroq va ta'sirchanroq ifodalay oladilar, so'zlarning nozik ma'no farqlarini his qiladilar va tilning ifodaviy imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanadilar. Bu esa ularning umumiy til madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, o'zbek o'quv lug'atlarida darajalanish tamoyilini takomillashtirish – bu nafaqat leksikografiya sohasining rivojlanishi, balki milliy ta'lim tizimining sifatini oshirishning muhim yo'nalishidir. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan tadqiqotlar va amaliy ishlar o'zbek tilshunosligining rivojlanishiga va milliy madaniyatning yangi avlodlarga uzatilishiga muhim hissa qo'shadi. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilishi orqali o'zbek tili o'quv lug'atlarining metodologik asoslari yanada mustahkamlanadi va ularning ta'limiy qiymati sezilarli darajada oshadi. Lug'atlar o'zgarayotgan til va ijtimoiy muhitga moslashishi kerak. Masalan, yangi texnologik, ilmiy va madaniy tendensiyalarni inobatga olgan holda yangi so'zlar va iboralar qo'shilishi zarur. Darajalanish tamoyilini takomillashtirish nafaqat lug'atning aniq va samarali bo'lishini ta'minlaydi, balki o'quvchilarning tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Педагогический энциклопедический словарь / Редкол.: М.М.Безруких, В.А.Болотов, Л.С.Глебова и др.; Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с. – С. 262.
2. Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы. Проблемы учебной лексикографии. – М.: Изд.-во Моск.ун-та, 1977. – 189 с. – С 4.
3. Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ... докт. филол. наук (в форме научного доклада). – М.: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1990. – С. 8.
4. Морковкин В.В. Учебная лексикография как особая лингвометодическая дисциплина // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М.: Русский язык, 1977. – с. 28-37. – С. 31.
5. Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022. – 145 б.
6. Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии. – М.: РУДН, 1990.



7. Уфимцева А.А. Лексическое значение: Принцип семиологического описания лексики. М.: Наука, 1986.
8. Trier J. Das sprachliche Feld. Eine Auseinandersetzung. Neue Jahrbücher für Wissenschaft und Jugendbildung, 1934.